

O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti huzuridagi
Statistika agentligining
2024- yil 23- fevraldagi
18- son buyrug'iga
ILOVA

Asosiy vositalarga investitsiyalar va qurilish ishlari narxlari indekslarini hisoblash bo'yicha uslubiy nizom

Asosiy vositalarga investitsiyalar va qurilish ishlari narxlari indekslarini hisoblash bo'yicha uslubiy nizom (keyingi o'rinlarda – Uslubiy nizom) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020- yil 3- avgustdagi PQ-4796- son qarori bilan tasdiqlangan 2020-2025- yillarda O'zbekiston Respublikasi statistikasini rivojlantirishning milliy strategiyasini amalga oshirish bo'yicha “Yo'l xaritasi” ijrosini ta'minlash maqsadida, shuningdek, “Statistik ma'lumotlarni ishlab chiqarish jarayonlarining namunaviy modeli” (Generic Statistical Business Process Model (keyingi o'rinlarda- GSBPM)) va “Statistik ma'lumotlarni taqdim etishning universal modeli” (Generic Statistical Information Model (keyingi o'rinlarda – GSIM)) talablari asosida ishlab chiqilgan.

Ushbu Uslubiy nizom qurilish ishlarini bajaruvchi korxonalar tomonidan xarid qilingan asosiy qurilish materiallari, qismlar va konstruksiyalar narxlarining darajasi va ularning o'zgarishini aniqlash bo'yicha statistika kuzatuvlarini tashkil etish tartibini belgilash hamda narx indekslarini hisoblashni yanada takomillashtirish maqsadida ishlab chiqilgan.

Uslubiy nizom O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari hamda xalqaro statistika tashkilotlarining ushbu sohadagi tajribasini hisobga olgan holda (“Ishlab chiqaruvchilarning narxlari indeksi bo'yicha qo'llanma: nazariya va amaliyot” (BMT YeIK, XVF, XMT, Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti, Yevrostat, Jahon banki) asosiy vositalarga investitsiyalar va ularning texnologik tuzilishi elementlarining narxlari indekslarini hisoblash bo'yicha uslubiy yondashuvlar asosida ishlab chiqilgan.

Ushbu uslubiy nizom qurilish-pudrat ishlarini bajaruvchi korxonalar tomonidan xarid qilingan asosiy qurilish materiallari, qismlar va konstruksiyalar narxlari, shuningdek, asosiy vositalarga investitsiyalar va qurilish pudrat ishlari narxlari indeksi bo'yicha ishonchli statistika ma'lumotlarini shakllantirish maqsadida statistika organlari tomonidan foydalanish uchun mo'ljallangan.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu uslubiy hujjatni ishlab chiqish, kelishish, tasdiqlash va joriy qilish GSIMga muvofiq, “Statistika sohasida tasniflar, metodologiyalar va kuzatuv shakllarini ishlab chiqish hamda tasdiqlash bo‘yicha namunaviy uslubiy qo‘llanma”da nazarda tutilgan bosqichlar asosida amalga oshirilgan.

2. Qurilish pudrat ishlari bilan shug‘ullanuvchi korxonalar tomonidan xarid qilingan asosiy qurilish materiallari, qismlar va konstruksiyalar narxlarining statistika kuzatuvini xarid qilingan asosiy qurilish materiallari, qismlar va konstruksiyalar narxlarini to‘g‘risidagi ma’lumotlarni olish hamda respublikada asosiy vositalarga investitsiyalar va qurilish ishlari narxlarini indekslarini hisoblash maqsadida tashkil etilgan bo‘lib, keyinchalik asosiy vositalarga investitsiyalar va qurilish ishlarining fizik hajmi indeksini hisoblashda, milliy hisoblar ko‘rsatkichlari deflyatori sifatida, shuningdek, asosiy vositalarga investitsiyalar va qurilish ishlari faoliyatida qisqa muddatli inflyatsiya tendensiyalarini tahlil qilish maqsadida foydalaniladi.

3. Kuzatuvga Iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichiga (IFUT, 2-tahrir) muvofiq asosiy iqtisodiy faoliyat turlari F – “Qurilish”, seksiyasiga taalluqli bo‘lgan korxonalar qamrab olinadi.

4. Ushbu uslubiy nizomda quyidagi asosiy tushuncha va ta’riflar qo‘llanilgan:

narx – tovar bahosining tovar miqdoriy birligi uchun muayyan valyuta (milliy yoki xalqaro) pul birliklaridagi ifodasi;

tovar turi – tovarning aniq belgilar, xususiyatlar, tasniflar va atributlarga ega bo‘lgan aniqlashtirilgan eng kam birligi;

indeksning bazaviy davri – narx indeksi qiymatlari 100 % ga teng deb qabul qilinadigan va u orqali oylik narx indeksleri bog‘lanishi amalga oshiriladigan davr;

individual narx indeksi – o‘rganilayotgan jamlanmadagi bir elementning (aniq mahsulot) narx o‘zgarishini ifodalaydi va har bir alohida hodisani tavsiflash uchun foydalaniladi;

yig‘ilgan (yig‘ma) indeks – umumiy o‘rganilayotgan ma’lum bir guruh, kichik guruh yoki butun bir jarayon bo‘yicha narxlar darajasining o‘zgarishini tavsiflovchi va individual narx indeksleri asosida shakllanadigan ko‘rsatkich;

salmoq vazn – tayanch yil uchun har bir agregatsiya bosqichlarida xarid qilingan moddiy resurslarning xarajatlar qiymati hajmidagi ulushi. Bu har bir elementning umumiy majmuadagi muhimlik darajasini aks ettiruvchi ko‘rsatkichdir.

tayanch tashkilot – narxlarni ro‘yxatga olish uchun tanlangan kuzatuv obyekti;

yirik tashkilot – kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari yirik tijorat tashkilotlari;

Ushbu Uslubiy nizomda keltirilgan atamalar, faqat statistika organlari tomonidan statistik maqsadlarda qo‘llaniladi.

2-bob. Kuzatuv instrumentariysi

5. Asosiy vositalarga investitsiyalar va qurilish ishlari narxlari indeksi qurilish montaj ishlari, uskunalar va boshqa kapital qo‘yilmalar bo‘yicha hisoblangan indekslar asosida shakllantiriladi.

Qurilish montaj ishlarining tarkibidagi moddiy xarajatlari uchun narxlarni ro‘yxatga olish 12 narx “Mahsulot (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqaruvchilar narxlari to‘g‘risida savolnoma (yirik korxonalar uchun)” (keyingi o‘rinlarda-12 narx) va 4 narx “Mahsulot (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqaruvchilar narxlari to‘g‘risida savolnoma (kichik tadbirkorlik korxonalari uchun)” (keyingi o‘rinlarda-4 narx) shakllari asosida amalga oshiriladi.

6. Uskunalar va boshqa kapital qo‘yilmalar bo‘yicha narxlar indeksi mahalliy ishlab chiqaruvchi korxonalarning ishlab chiqargan uskunalari bo‘yicha 12 narx “(Mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqaruvchilar narxlari to‘g‘risida savolnoma (yirik korxonalar uchun)” va 4 narx “(Mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqaruvchilar narxlari to‘g‘risida savolnoma (kichik tadbirkorlik sub’ektlari uchun)” statistika kuzatuvlari shakli asosida va import uskunalar bo‘yicha AQSh dollari kursining o‘zgarishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar asosida shakllantiriladi.

Qurilishda oylik ish haqi indeksi 4 mehnat shakli statistika hisoboti (keyingi o‘rinlarda – 4 mehnat) ma’lumotlari asosida hisoblanadi.

7. Mazkur shakllar GSIMga muvofiq Statistika dasturlarini ishlab chiqish va tasdiqlash tartibi hamda Statistika sohasida tasniflar, metodologiyalar va kuzatuv shakllarini ishlab chiqish hamda tasdiqlash bo‘yicha namunaviy uslubiy qo‘llanmada belgilangan qoidalar asosida ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi.

8. Zarur hollarda ro‘yxatdan o‘tkazish uchun belgilangan tartibda tasdiqlangan boshqa hujjatlar va savolnomalardan foydalanish mumkin.

3-bob. Narx indeksini shakllantirishning asosiy bosqichlari

9. GSBPMga muvofiq, IChNIni bevosita shakllantirish to'plash (GSBPMning IV bosqichi), qayta ishlash (GSBPMning V bosqichi), tahlil qilishni (GSBPMning VI bosqichi) nazarda tutuvchi bir nechta bosqichlarda amalga oshiriladi. Shakllantirilgan ma'lumotlarni keyinchalik e'lon qilish GSBPMning VII bosqichiga muvofiq amalga oshiriladi.

10. Narxlar indeksini shakllantirish quyidagi bosqichlar va jarayonlardan tashkil topgan:

a) bosh to'plam asosida narx kuzatuvlari o'tkaziladigan tayanch obyektlar va vakil tovar (xizmat)lar tanlanmasini shakllantirish (GSBPM modelining 4.1-jarayoni);

b) narxlarni ro'yxatga olishning asosiy tamoyillariga amal qilinishini ta'minlagan holda narx ma'lumotlarini to'plashni tashkil etish, o'tkazish va yakunlash (GSBPM modelining 4.2 va 4.4-jarayonlari);

v) integratsiya, tasniflash va kodlashtirish, tekshirish, ma'lumotlarni tahrirlash va shartli hisob kitoblarni o'tkazish, vaznlar tizimini shakllantirish, ma'lumotlarni umumlashtirishni nazarda tutadigan ma'lumotlarni qayta ishlash jarayoni (GSBPM modelining 5.1-5.8-jarayonlari);

g) dastlabki ma'lumotlarni tayyorlash, tekshirish, statistik ma'lumotlarga izohlar va tushuntirishlar tayyorlash, birlamchi ma'lumotlarni identifikatsiyalashni oldini olishga qaratilgan choralarni ko'rish va narx indeksini shakllantirishni yakunlash (GSBPM modelining 6.1-6.5-jarayonlari).

4-bob. Asosiy vositalarga investitsiyalar va qurilish ishlari elementlarining salmoq vaznlarini shakllantirish

11. Qurilish-montaj ishlari, uskunalarga investitsiyalar, boshqa kapital ishlari va xarajatlarining asosiy kapitalga investitsiyalarning umumiy hajmidagi ulushi 1 invest (asosiy) "Investitsiya faoliyati, bino va inshootlarni foydalanishga topshirish to'g'risida" (keyingi o'rinlarda – 1 invest (asosiy)) statistika hisoboti shakli ma'lumotlari asosida aniqlanadi.

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar bo'yicha yig'ma narxlar indeksi investitsiyalarning texnologik tuzilishi barcha tarkibiy qismlari bo'yicha narxlar indeksleri hisob-kitoblari asosida, ya'ni qurilish-montaj ishlari, mashina va uskunalar hamda boshqa kapital ishlari va xarajatlarining asosiy kapitalga investitsiyalarning umumiy hajmidagi ulushlari bo'yicha tortilgan narx indekslaridan yig'ma ko'rsatkich sifatida hisoblanadi.

Asosiy vositalarga investitsiyalar va qurilish ishlari elementlarining tarkibi 1-ilovada keltirilgan.

1-§. Qurilish-montaj ishlari ko'rsatkichlarining shakllanishi

12. Qurilish-montaj ishlari yig'ma indeksi moddiy xarajatlar, ish haqi xarajatlari, ijtimoiy xarajatlar uchun ajratmalar, boshqa qurilish-montaj ishlari xarajatlari, rejalashtirilgan jamg'armalar bo'yicha narx indeksleri va tayanch davr uchun qurilish-montaj ishlari qiymatidagi tegishli xarajatlarning ulushlari bo'yicha o'rtacha tortilgan kattalik sifatida hisoblanadi.

13. Har bir elementning (moddiy xarajatlar, ish haqi xarajatlari, ijtimoiy sug'urta badallari, boshqa qurilish-montaj ishlari xarajatlari, rejalashtirilgan jamg'armalar) joriy narxlardagi qurilish-montaj ishlari qiymatidagi vaznlari (ulushlari) bo'yicha ma'lumotlar qurilish sohasi bo'yicha 1 korxona (yillik) "Tashkilot xo'jalik faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari to'g'risida hisobot" shakli ma'lumotlari asosida shakllantiriladi.

2-§. Moddiy xarajatlar ko'rsatkichlarining shakllanishi

14. Moddiy xarajatlar narxlari indeksini aniqlashda birinchi bosqichda vazn ulushlari shakllantiriladi. Moddiy xarajatlar tuzilmasi representativ bo'lishi uchun moddiy xarajat elementlari xarajatlarning eng katta salmoq ulushlari tamoyiliga muvofiq tanlab olingan. Har bir moddiy xarajat elementlari bo'yicha uning jami moddiy xarajatlar tarkibidagi ulushi aniqlanadi.

15. Qurilish-pudrat tashkilotlarida xarid qilingan asosiy qurilish materiallari 12 narx va 4 narx statistika kuzatuv shakllariga asosan resurslar narxlarini ro'yxatga olish qurilishda narxlarni kuzatish tizimining asosiy elementi hisoblanadi.

12 narx va 4 narx statistika kuzatuvlari ma'lumotlari asosida qurilish materiallari turlari bo'yicha o'rtacha narxlar aniqlanadi hamda ulardan foydalangan holda kuzatilayotgan qurilish materialining har bir turi bo'yicha hisobot davri uchun oldingi davrga nisbatan qisqa muddatli narx o'zgarishlarining nisbiy kattaligi hisoblab chiqiladi.

Xarid qilingan asosiy qurilish materiallari narxlari bo'yicha ma'lumotlar to'plamini shakllantirish ikki bosqichda amalga oshiriladi:

birinchi bosqichda, oylik davriylikda qurilish materiallari narxlari to'g'risidagi ma'lumotlar, faqatgina yirik tayanch tashkilotlari tomonidan yirik korxonalar uchun tasdiqlangan statistika kuzatuv shaklida belgilangan muddatlarda taqdim etiladi;

ikkinchi bosqichda, choraklik davriylikda xarid qilingan asosiy qurilish materiallari narxlari to'g'risidagi ma'lumotlar kichik tadbirkorlik subyektlariga mansub tayanch tashkilotlar tomonidan statistika kuzatuv uchun maxsus ishlab chiqilgan savolnomada belgilangan muddatlarda taqdim etiladi. Shu bilan birga, ular tomonidan xarid qilingan asosiy qurilish materiallari narxlari to'g'risidagi ma'lumotlar chorakning har bir oyi bo'yicha diskret shaklida taqdim etiladi.

Qurilish-montaj ishlari narxlari indekslarini hisoblashda foydalaniladigan asosiy qurilish materiallari, qismlar va konstruksiyalarning ro'yxati 2- ilovada keltirilgan.

3-§. Mehnatga haq to'lash va ijtimoiy sug'urta xarajatlari ko'rsatkichlarining shakllanishi

16. Qurilishda bitta ishchi uchun amaldagi o'rtacha oylik ish haqining o'tgan davrga nisbatan o'zgarish sur'ati **mehnatga haq to'lash** (STR_i) va **ijtimoiy sug'urta** badallariga (STR_s) xarajatlar bo'yicha o'sish sur'ati indeksi sifatida qabul qilinadi. Bu ko'rsatkich 4 mehnat statistika hisoboti ma'lumotlari asosida hisoblanadi.

Statistika dasturiga asosan 4 mehnat bo'yicha yakuniy ma'lumotlar hisobot choragidan keyingi oyda chorakning har bir oyi uchun shakllanishini hisobga olgan holda, ish haqi indeksi hisobot choragidan oldingi chorakning oylik ko'rsatkichlari asosida hisoblab chiqiladi.

Ish haqiga qo'shimcha mukofot pullari (bayramlar munosabati bilan, choraklik yoki yillik mukofot pullari) va boshqa rag'batlantiruvchi to'lovlar hisobiga ish haqi indeksidagi qisqa muddatli keskin o'zgarishlarni oldini olish maqsadida, hisobot oyi uchun o'rtachalashgan ish haqi indeksi so'nggi 12 oy davomidagi o'tgan oyga nisbatan qisqa muddatli ish haqi indekslarining o'rtacha geometrik kattaligi sifatida quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$\overline{STR}_{i(t)} = \sqrt[12]{\prod_{n=t}^{t-12} STR_{i(n)}}$$

bu yerda,

$\overline{STR}_{i(t)}$ - (t) joriy oydagi o'tgan oyga nisbatan (i) ish haqi indeksi;

$STR_{i(n)}$ - Ish haqi bo'yicha n- oy uchun qisqa muddatli indeks

t - Joriy oy

4-§. Qurilish-montaj ishlari tarkibidagi boshqa xarajatlar ko'rsatkichlarining shakllanishi

17. Qurilish-montaj ishlari tarkibidagi boshqa xarajatlar o'zgarishlari indeksi moddiy xarajatlar, ijtimoiy sug'urta xarajatlari uchun ajratmalar va ish haqi indekslarining o'rtacha tortilgan kattaligi sifatida aniqlanadi. Shu bilan birga, vaznlar (W) sifatida moddiy xarajatlar ulushi (W^m), ish haqi (W^i) va ijtimoiy sug'urta (W^s) badallari ishtirok etadi.

Boshqa xarajatlar o'zgarishlari bo'yicha turli davrlarga nisbatan indekslarni hisoblash tartibi quyida 4- bobda keltirilgan formulalar asosida amalga oshiriladi.

5-§. Rejalashtirilgan jamg'armalar bo'yicha ko'rsatkichlarning shakllanishi

18. Moddiy xarajatlar, ish haqi indekslaridan o'rtacha tortilgan kattalik sifatida hisoblangan ko'rsatkich **rejalashtirilgan jamg'armalar bo'yicha indeks** (STR^j) sifatida qabul qilinadi va quyidagi formulalar yordamida hisoblanadi:

$$LTR_t^j = \frac{LTR_t^m * W_t^m + LTR_t^i * W_t^i + LTR_t^a * W_t^a}{W_t^m + W_t^i + W_t^a}$$

$$STR_t^j = \frac{LTR_t^j}{LTR_{t-1}^j}$$

bu yerda,

LTR_t^j , LTR_{t-1}^j – joriy (t) va o'tgan ($t-1$) oylar uchun rejalashtirilgan jamg'arma bo'yicha bazaviy yilning dekabriga nisbatan narxlar indeksi;

LTR_t^m , LTR_t^i , LTR_t^a – mos ravishda moddiy xarajatlar, ish haqi bo'yicha indekslar;

W^m , W^i , W^a – moddiy xarajatlar, ish haqi bo'yicha salmoq vaznlari;

STR_t^j - rejalashtirilgan jamg'armalar bo'yicha o'tgan oyga nisbatan narx indeksi.

6-§. Uskunalar bo'yicha ko'rsatkichlarning shakllanishi

19. Qurilishda ishlatiladigan mashinalar va uskunalar narxlari indeksi investitsiya faoliyati, bino va inshootlarni foydalanishga topshirish to'g'risidagi hisobot (1 invest (asosiy)) ma'lumotlari hamda mahalliy uskunalarining indeksi ishlab chiqarish korxonalarining narxlari indeksleri ma'lumotlari asosida aniqlanadi.

Hisob-kitoblarda dastlab, mahalliy mashinalar va uskunalar narxlari indeksi sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar narxlari indeksi kuzatuv natijalaridan shakllantiriladi va keyingi bosqichda, import qilingan mashina va uskunalar narxlari o'zgarishlarini hamda ularning tegishli ulushlarini hisobga olgan holda, mashina va uskunalar narxlari bo'yicha yig'ma ko'rsatkich aniqlanadi.

20. Import qilinadigan texnika va uskunalar narxlari indeksi O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki ma'lumoti asosida so'mning AQSH dollariga nisbatan hisobot oyining 20- sanasiga hisoblangan kursining o'tgan oy 20- sanasidagi kursiga nisbatan o'zgarishi darajasidan foydalangan holda shakllantiriladi.

Mahalliy va import qilinadigan mashina va uskunalar ulushini aniqlash uchun investitsiya faoliyati, bino va inshootlarni foydalanishga topshirish to'g'risidagi hisobot (1 invest (asosiy)) ma'lumotlari axborot manbasi bo'lib hisoblanadi.

7-§. Boshqa kapital ishlari va xarajatlari bo'yicha ko'rsatkichlarning shakllanishi

21. Boshqa kapital ishlar va xarajatlar tarkibida eng katta ulushni loyihalash va tadqiqot ishlari egallaydi. Shuning uchun, **loyihalashtirish va tadqiqot ishlari (LTI)** qiymati indeksi **boshqa kapital ishlari va xarajatlar** qiymati indeksi sifatida qabul qilinadi.

Loyihalashtirish va tadqiqot ishlari tuzilmasidagi xarajatlar bo'yicha indeksni hisoblashda quyidagilardan foydalaniladi:

- xomashyo va materiallar narxlari indeksi uchun qog'oz va karton mahsulotlari narxlari indeksidan;
- qurilish tashkilotlari tomonidan bajariladigan ishlab chiqarish xarakteridagi ishlar va xizmatlar uchun qurilish-montaj ishlari narxlari indeksidan;
- yoqilg'i uchun issiqlik energiyasi narxlari indeksidan;
- energiya uchun elektr energiyasi narxlari indeksidan;
- ish haqi va ijtimoiy to'lovlar uchun 4 mehnat hisoboti ma'lumotlari asosida o'rtacha geometrik kattalik sifatida hisoblangan oylik ish haqi indeksidan;
- boshqa xarajatlar uchun xomashyo va materiallar, ish haqi xarajatlari narxlari indekslarining o'rtacha tortilgan qiymatidan;
- foyda qismi bo'yicha xomashyo va materiallar, ish haqi bo'yicha indeksning o'rtacha tortilgan qiymatidan foydalaniladi.

LTI bo'yicha yig'ma narxlar indeksini hisoblashda foydalaniladigan ishlab chiqaruvchilar narxlari indeksi ko'rsatkichlari 3-ildavada keltirilgan.

4-bob. Asosiy vositalarga investitsiyalar va qurilish ishlari narxlari indeksini hisoblash

22. 2-§ da batafsil yoritib ketilgan narxlar to'g'risidagi birlamchi ma'lumotlarni to'plashning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, narxlar bo'yicha ma'lumotlar bazasini shakllantirish, o'z navbatida ikkita ma'lumotlar to'plamini ham nazarda tutadi. Birinchi to'plam faqatgina yirik korxonalarining narxlari to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi va har oyda shakllantiriladi.

Ikkinchi to'plam kichik tadbirkorlik subyektlariga mansub tayanch tashkilotlarning narxlari to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi va har chorakda, chorakning oxirgi oyida chorakning barcha uch oylaridagi narxlarni o'z ichiga olgan holda shakllantiriladi. Shularni hisobga olgan holda, narx indekslari hisob-kitoblari bir nechta bosqichlarda amalga oshiriladi.

23. Dastlabki bosqichda, chorakning birinchi va ikkinchi oylarida, yirik korxonalar va kichik tadbirkorlik subyektlariga mansub tayanch korxonlarni o'z ichiga olgan holda shakllantirilgan tanlanma va salmoq vaznlari tuzilmasiga muvofiq, xarid qilingan asosiy qurilish materiallari narxlarini hisoblash uchun dasturiy ma'lumotlar bazasiga statistik kuzatuv shaklini qabul qilish jarayonida avtomatik ravishda, faqatgina ro'yxat bo'yicha tayanch yirik korxonalarining narxlari to'g'risidagi ma'lumotlar kelib tushadi. So'ng, faqatgina yirik tayanch tashkilotlari asosida o'rtacha narx hisob-kitob qilinadi.

24. Keyingi bosqichda, narxlari mavjud bo'lmagan pozitsiyalar bo'yicha "shartli" hisob-kitoblar amalga oshiriladi.

Yuqoridagi "shartli" hisob-kitoblarni amalga oshirishni quyidagi misol yordamida ko'rib chiqamiz:

"Mavjud bo'lmagan" narxni "shartli o'rtacha" asosida shartli hisoblanishi

Mahsulot turi	Korxona	Yanvar	Fevral	Mart
A mahsulot D 32		8271667	8397500	8434434
A mahsulot D 32	1- yirik korxona	8075000	8150000	8393268
A mahsulot D 32	2- yirik korxona	8240000	8397500	8475600
A mahsulot D 32	3- yirik korxona	8500000	8645000	8434434
A mahsulot D 32	1- kichik korxona	8271667	8397500	

"Shartli" narxni hisoblash mahsulot turining haqiqiy narxi paydo bo'lgungacha amalga oshiriladi.

“Mavjud bo‘lmagan mahsulot turi”ning joriy oydagi shartli narxi boshqa tayanch korxonalarning mahsulot turi bo‘yicha o‘rtacha narxidan shakllanadi.

Bunda, kichik tadbirkorlik subyektiga mansub tayanch tashkilotlardagi har bir material bo‘yicha narxga mazkur material mansub bo‘lgan tur (marka) bo‘yicha narxi qo‘llaniladi. Agar, material turi (marka) bo‘yicha narx ko‘rsatkichi nolga teng bo‘lsa, unda tasniflagichga iyerarxik tuzilmasiga muvofiq, yanada yuqoriroq darajadagi narxdan foydalaniladi. Natijada, yirik tayanch tashkilotlari bo‘yicha amaldagi narxlari va kichik tadbirkorlik subyektiga mansub bo‘lgan tayanch tashkilotlar bo‘yicha “shartli hisoblangan” narxini o‘z ichiga olgan ma’lumotlar bazasi shakllanadi.

Shunday qilib, kichik tadbirkorlik subyektlari bo‘yicha narxlar va individual narx indekslari chorakning dastlabki ikkita oyida “shartli” ko‘rsatkichlar sifatida hisoblanadi.

25. Kichik tadbirkorlik subyektlari bo‘yicha shartli hisoblangan narxlar yirik tayanch tashkilotlaridan olingan narxlarni kichik tadbirkorlik subyektiga mansub bo‘lgan tayanch tashkilotlarga ekstrapolyatsiya qilinadi.

Yuqoridagi “shartli hisoblangan” narxlarni ekstrapolyatsiya qilish hisob-kitoblarini amalga oshirishni quyidagi misolda ko‘rib chiqamiz.

“Shartli hisoblangan” narxlarni ekstrapolyatsiya asosida hisoblanishi

Mahsulot turi	Korxona	Yanvar	Fevral	Mart
A mahsulot D 32		8323750	8437125	8506826
A mahsulot D 32	1- yirik korxona	8075000	8150000	8393268
A mahsulot D 32	2- yirik korxona	8240000	8397500	8475600
A mahsulot D 32	3- yirik korxona	8500000	8645000	8434434
A mahsulot D 32	1- kichik korxona	8271667 8480000	8397500 8556000	8724000

Uchinchi bosqichda, barcha pozitsiyalar ishtirokida yana narxlar indeksini hisoblash amalga oshiriladi.

26. Qisqa muddatli individual narxlar indeksi alohida qurilish materiali turi bo‘yicha hisoblanadi va joriy oydagi narxlarni o‘tgan oydagi narxlarga nisbatini ifodalaydi:

$$STR_{i(t)} = \frac{P_{i(t)}}{P_{i(t-1)}},$$

bu yerda,

$STR_{i(t)}$ – hisobot (t) oyidagi (i) qurilish materiali turi bo‘yicha o‘tgan oyga ($t-1$) nisbatan qisqa muddatli narx indeksi;

$P_{i(t)}$ – qurilish materiali (i) turining joriy (t) oyidagi narxi;

$P_{i(t-1)}$ – qurilish materiali (i) turining o‘tgan ($t-1$) oyidagi narxi.

yanvar oyida qisqa muddatli indekslar o'tgan oyga nisbatan va o'tgan yilning dekabriga nisbatan uzoq muddatli indeksleri ko'rsatkichlari bir-biriga mos keladi:

$$STR_{j(yan.)} = LTR\ 2_{j(yan.)} = \frac{\sum_{i=1}^n STR_{i(yan.)} \times W_{0i}}{\sum_{i=1}^n W_{0i}} - \text{kichik guruh bo'yicha,}$$

$$STR_{g(yan.)} = LTR\ 2_{g(yan.)} = \frac{\sum_{j=1}^n STR_{j(yan.)} \times W_{0j}}{\sum_{j=1}^n W_{0j}} - \text{guruhlar bo'yicha,}$$

$$STR_{r(yan.)} = LTR\ 2_{r(yan.)} = \frac{\sum_{r=1}^n STR_{g(yan.)} \times W_{0g}}{\sum_{r=1}^n W_{0g}} - \text{bo'limlar bo'yicha,}$$

$$STR_{s(yan.)} = LTR\ 2_{s(yan.)} = \frac{\sum_{r=1}^n STR_{r(yan.)} \times W_{0r}}{\sum_{r=1}^n W_{0r}} - \text{seksiya bo'yicha,}$$

$STR_{(jan)}$ o'tgan oyga nisbatan yanvar oyidagi qisqa davrli narx indeksi;

$LTR\ 2_{(jan)}$ o'tgan yilning dekabriga nisbatan yanvar oyidagi uzoq davrli narx indeksi;

i material turi

j kichik guruh

g guruh

r bo'lim

s seksiya

$W_{0i}, W_{0j}, W_{0g}, W_{0r}, W_{0s}, W_{0L}$ – mos material (i) bo'yicha, kichik guruh (j), guruhning (g), bo'lim (r), seksiya (s), salmoq vazni,

n mos ravishda kichik guruh, guruh, bo'lim, seksiyaga kiritilgan pozitsiyalar soni.

fevral oyidan boshlab narxlar indeksini hisoblash yanvar oyidagi kabi ketma-ketlikda amalga oshiriladi, biroq, o'tgan yilning dekabriga nisbatan ($LTR\ 2$) uzoq muddatli jamlanma indekslar quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$LTR\ 2_{j(t)} = \frac{\sum_{i=1}^n STR_{i(t)} \times V_{i(t-1)}}{\sum_{i=1}^n W_{0i}}, \text{ bunda } V_{i(t-1)} = W_{0i} * \prod STR_{i(t-1)} - \text{kichik guruhlar}$$

bo'yicha;

$$LTR2_{g(t)} = \frac{\sum_{j=1}^n STR_{j(t)} \times V_{j(t-1)}}{\sum_{j=1}^n W_{0j}}, \quad \text{bunda} \quad V_{j(t-1)} = W_{0j} * \prod STR_{j(t-1)} \quad - \quad \text{guruhlar}$$

bo'yicha;

$$LTR2_{r(t)} = \frac{\sum_{g=1}^n STR_{g(t)} \times V_{g(t-1)}}{\sum_{g=1}^n W_{0g}}, \quad \text{bunda} \quad V_{g(t-1)} = W_{0g} * \prod STR_{g(t-1)} \quad - \quad \text{bo'limlar}$$

bo'yicha;

$$LTR2_{s(t)} = \frac{\sum_{r=1}^n STR_{r(t)} \times V_{r(t-1)}}{\sum_{r=1}^n W_{0r}}, \quad \text{bunda} \quad V_{r(t-1)} = W_{0r} * \prod STR_{r(t-1)} \quad - \quad \text{seksiya}$$

bo'yicha;

fevral oyidan boshlab qisqa muddatli indekslar o'tgan oyga nisbatan quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$STR_{j(t)} = \frac{LTR2_{j(t)}}{LTR2_{j(t-1)}} \quad - \quad \text{kichik guruhlar bo'yicha,}$$

$$STR_{g(t)} = \frac{LTR2_{g(t)}}{LTR2_{g(t-1)}} \quad - \quad \text{guruhlar bo'yicha,}$$

$$STR_{r(t)} = \frac{LTR2_{r(t)}}{LTR2_{r(t-1)}} \quad - \quad \text{bo'limlar bo'yicha,}$$

$$STR_{s(t)} = \frac{LTR2_{s(t)}}{LTR2_{s(t-1)}} \quad - \quad \text{seksiya bo'yicha,}$$

27. Chorakning uchinchi oyida, statistika organlarida tayanch yirik korxonalar bilan birgalikda kichik tadbirkorlik subyektlariga mansub tayanch korxonalar bo'yicha ham amaldagi narxlar to'g'risidagi ma'lumotlar bazalari shakllantirilganda, yanvar oyidan fevral oyigacha narxlar indeksining retrospektiv hisob-kitobi amalga oshiriladi va mart oyi uchun amaldagi narxlar asosida narx indeksleri shakllantiriladi.

Keyingi choraklarda hisob-kitoblarning uchchala bosqichi ketma-ketligi takrorlanadi, shuningdek, barcha bosqichlarda fevral oyida qo'llanilgan formulalardan foydalanish muhim hisoblanadi.

O'tgan yilning dekabr oyiga nisbatan uzoq muddatli individual narx indeksi quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi $LTR2$ (formula barcha darajadagi umumlashtiruvlar uchun mos keladi):

$$LTR2_{i(t)} = \prod_{m=1}^t STR_{i(t)}$$

bu yerda,

$LTR2_{i(t)}$ – o'tgan yilning dekabr oyiga nisbatan (i) qurilish materialining joriy (t) oydagi uzoq muddatli narx indeksi;

m – oylarning tartib raqami (yanvar uchun – 1, fevral uchun – 2 va h.k.).

O'tgan yilning tegishli oyiga nisbatan joriy yilning hisobot oyidagi narxlar indeksleri $LTR 3$ (formula barcha darajadagi umumlashtiruvlar uchun mos keladi):

$$LTR 3_{(t)} = \frac{LTR 1_{t(y)}}{LTR 1_{t(y-1)}},$$

bu yerda,

$LTR 3_{(t)}$ (y) hisobot yilining (t) joriy oyi uchun o'tgan yilning (t) mos oyiga nisbatan uzoq muddatli narxlar indeksi ($y-1$);

$LTR 1_{t(y)}$ yagona tayanch davr uchun hisoblangan (y) hisobot yilining (t) joriy oyi uchun uzoq muddatli narx indeksi;

$LTR 1_{t(y-1)}$ yagona tayanch davr uchun hisoblangan ($y-1$) o'tgan yilning (t) mos oyi uchun uzoq muddatli indeksi;

Hisobot davrining o'tgan yilning mos davriga nisbatan narx indeksi $LTR 4$ (formula barcha darajadagi umumlashtiruvlar uchun mos keladi):

$$LTR 4_{(t)} = \frac{\sum_{n=1}^t LTR 1_{n(y)}}{\sum_{n=1}^t LTR 1_{n(y-1)}},$$

bu yerda,

$LTR 4_{(t)}$ ($y-1$) o'tgan yilning mos davriga nisbatan (y) hisobot yilining yanvar oyidan joriy oyga (t) qadar uzoq muddatli narxlar indeksi;

n oylarning tartib raqami (yanvar uchun – 1, fevral uchun – 2 va h.k.).

Bundan tashqari, narx indeksleri har chorakda hisobot yilining joriy choragi uchun o'tgan chorakka va o'tgan yilning mos choragiga nisbatan ham hisoblanadi. Shu maqsadda quyidagi formulalar qo'llaniladi:

Hisobot yili joriy choragining o'tgan chorakka nisbatan narxlar indeksi $LTR 5$ (formula barcha darajadagi umumlashtiruvlar uchun mos keladi):

$$LTR 5_{(q)} = \frac{\sum_{m=1}^3 LTR 1_{m(q)}}{\sum_{m=1}^3 LTR 1_{m(q-1)}}$$

bu yerda,

$LTR 5_{(q)}$ joriy chorak narx indeksi (q) o'tgan chorakka nisbatan ($q-1$);

m chorak oylarining tartib raqami (birinchi oy uchun – 1, ikkinchi oy uchun – 2, uchinchi oy uchun – 3).

Hisobot yili joriy choragining o'tgan yilning mos choragiga nisbatan narxlar indeksi $LTR 6$ (formula barcha darajadagi umumlashtiruvlar uchun mos keladi):

$$LTR 6_{(q)} = \frac{\sum_{m=1}^3 LTR 1_{m(y)}}{\sum_{m=1}^3 LTR 1_{m(y-1)}}$$

bu yerda,

$LTR 6_{(q)}$ o'tgan yilning mos choragiga nisbatan ($y-1$) hisobot yili (y) joriy chorak narx indeksi (q);

m chorak oylarining tartib raqami (birinchi oy uchun – 1, ikkinchi oy uchun – 2, uchinchi oy uchun – 3)..

Bundan tashqari, statistik maqsadlarda quyidagi qo'shimcha diskret narxlar indeksi shakllantiriladi:

hisobot yili joriy choragining bazaviy yilning o'rtacha yillik narxlariga nisbatan narx indeksi $LTR 7$ (formula barcha darajadagi umumlashtiruvlar uchun mos keladi):

$$LTR 7_{(q)} = \frac{\sum_{m=1}^3 LTR 1_{m(y)}}{\sum_{n=1}^{12} LTR 1_{n(z)}}$$

bu yerda,

$LTR 7_{(q)}$ bazaviy yilning o'rtacha yillik narxlariga (z) nisbatan hisobot yili (y) joriy choragi narx indeksi (q);

$LTR 1_{(y)}$ yagona bazaviy davr uchun hisoblangan hisobot yilining uzoq muddatli indeksi (y);

$LTR 1_{(z)}$ yagona bazaviy davr uchun hisoblangan bazaviy yilning uzoq

muddatli indeksi (z);

m chorakdagi oyning tartib raqami (1- chorakning birinchi oyi, ikkinchi oyi va uchinchi oyi uchun).

n bazaviy yil oyining tartib raqami (1-yanvar, 2-fevral..., 12-dekabr)

hisobot yili joriy choragining hisobot yilining o'rtacha yillik narxlariga nisbatan narx indeksi $LTR 8$ (formula barcha darajadagi umumlashtiruvlar uchun mos keladi):

$$LTR8_{(q)} = \frac{\sum_{m=1}^3 LTR1_{m(y)}}{\sum_{n=1}^{12} LTR1_{n(y)}}$$

bu yerda,

$LTR 8_{(q)}$ joriy yilning o'rtacha yillik narxlariga (y) nisbatan hisobot yili (y) joriy choragi narx indeksi (q);

m chorakdagi oyning tartib raqami (1- chorakning birinchi oyi, ikkinchi oyi va uchinchi oyi uchun).

n bazaviy yil oyining tartib raqami (1-yanvar, 2-fevral..., 12-dekabr)

hisobot yili joriy oyining tayanch (bazaviy) yilning o'rtacha yillik narxlariga nisbatan narx indeksi $LTR 9$ (formula barcha darajadagi umumlashtiruvlar uchun mos keladi):

$$LTR9_{(t)} = \frac{LTR1_{t(y)}}{\sum_{n=1}^{12} LTR1_{n(z)}}$$

bu yerda,

$LTR9_{(t)}$ bazaviy yilning o'rtacha yillik narxlariga (z) nisbatan hisobot yili (y) joriy oydagi narx indeksi (t);

n bazaviy yil oyining tartib raqami (1-yanvar, 2-fevral..., 12-dekabr)

hisobot yili joriy oyining hisobot yilining o'rtacha yillik narxlariga nisbatan narx indeksi $LTR 10$ (formula barcha darajadagi umumlashtiruvlar uchun mos keladi):

$$LTR 10_{(t)} = \frac{LTR 1_{t(y)}}{\sum_{n=1}^{12} LTR 1_{n(y)}}$$

bu yerda,

$LTR10_{(t)}$ hisobot yilining o'rtacha yillik narxlariga (y) nisbatan hisobot yili (y) joriy oydagi (t) narx indeksi;

n oyning tartib raqami (1-yanvar, 2-fevral..., 12-dekabr)

Hisobot yilining joriy choragi va joriy oyining hisobot yilining o'rtacha yillik narxlariga nisbatan narxlar indeksi (*LTR8* va *LTR10*) hisobot yili oxirida dekabr oyi uchun narxlar indeksi hisob-kitoblari tugaganidan so'ng shakllantiriladi. Indeksni shakllantirish har bir chorak (*LTR8*) va oy uchun (*LTR10*) retrospektiv holda amalga oshiriladi.

6-bob. Ma'lumotlarni tahlil qilish

28. Ma'lumotlarni tahlil qilish bosqichida asosiy vositalarga investitsiyalar va qurilishi ishlari narxlar indeksi to'g'risidagi statistik materiallarni ishlab chiqish, ularni batafsil tekshirish va rasmiy statistika ma'lumoti sifatida tarqatish uchun tayyorlash amalga oshiriladi.

29. Ma'lumotlarni tahlil qilish bosqichida tayyorlangan chiquvchi jadvallar natijalarini, shuningdek, ma'lumotlar bazasidan yoki tayyor hujjatlar bazasidan olingan zarur axborotlarni ko'rib chiqish, shakllantirilgan ma'lumotlar asosida diagrammalar, grafikalar va tahliliy jadvallarni tuzish bo'yicha ishlar amalga oshiriladi.

30. Narxlar indeksi to'g'risidagi statistika ma'lumotlari sifatini tahlil qilishda, statistik ko'rsatkichlarning ishonchliligi va aniqligi (asoslanganligi, xatolarning yo'qligi), yaxlitligi (qamrovning to'liqligi, statistika metodologiyasiga rioya etilganligi), bir-biriga qarama-qarshi emasligi, qiyosiyliigi (hudud, qamrab olingan ob'ektlar doirasi, o'lchov birligi va boshqalar bo'yicha), bir xilda tuzilganligi (ma'lumotlarni chiqarib tashlash, ularda keskin o'zgarishlar, tushirib qoldirish holatlarining mavjud yoki mavjud emasligi) jihatlari ko'rib chiqiladi.

31. Ma'lumotlarni tahlil qilish doirasida amalga oshiriladigan tekirish ishlari birlamchi ma'lumot qamrovi ko'rsatkichi va savolnoma bo'yicha taqdim etilgan javoblar koeffitsientining belgilangan talablarga muvofiqligini tekshirish, statistika ma'lumotlarini oldingi davrlar va joriy trendlar bilan solishtirish ishlari o'z ichiga oladi.;

32. Zarur hollarda, tahlil qilish doirasida narxlar indeksi to'g'risidagi statistika ma'lumotlarini to'g'ri talqin qilinishini ta'minlashga qaratilgan turli tushuntirishlar tayyorlanishi mumkin.

Ushbu jarayonda, shuningdek, barcha chiquvchi jadvallar, fayllar va boshqa statistik materiallar tayanch korxonalar va ular bo'yicha individual ma'lumotlarni bevosita yoki bilvosita identifikatsiya qilish imkonini bermayotganligini tekshirishni nazarda tutuvchi birlamchi ma'lumotlarni identifikatsiya qilishni oldini olish bo'yicha choralar qo'llash amalga oshiriladi.

7-bob. Yakuniy qoidalar

33. Asosiy vositalarga kiritilgan investitsiyalar va qurilish ishlari narxlar indeksini to'g'risidagi ma'lumotlar GSBPMning VII bosqichida nazarda tutilgan jarayonlarga muvofiq amalga oshiriladi.

Asosiy vositalarga kiritilgan investitsiyalar va qurilish ishlari narxlar indeksini to'g'risidagi ma'lumotlar Statistika dasturida belgilangan muddatlarda shakllantirib boriladi va belgilangan tartibga muvofiq foydalanuvchilarning so'roviga asosan taqdim etiladi.

Ma'lumotlar bir vaqtning o'zida barcha foydalanuvchilarga jadval materiallari shaklida Statistika agentligining rasmiy veb-saytiga joylashtirish orqali tarqatiladi.

Nashrlar va rasmiy xabarlarda asosiy vositalarga investitsiyalar va qurilish ishlari narxlar indeksini to'g'risidagi ma'lumotlar butun sondan keyin bitta belgi bilan e'lon qilinadi.

Har chorakning dastlabki ikki oyi uchun ko'rsatkichlar "Yirik korxonalar bo'yicha amaldagi narxlar va kichik tadbirkorlik subyektlari bo'yicha shartli hisob-kitoblarni hisobga olgan holda dastlabki ma'lumotlar" qaydi bilan, qolgan oylarda "Yirik va kichik tadbirkorlik korxonalari bo'yicha amaldagi narxlarni hisobga olgan holda qayta hisoblangan ma'lumotlar" qaydi bilan nashr etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ishlab chiqaruvchilarning narxleri indeksi bo'yicha qo'llanma: nazariya va amaliyot (BMT, YeIK, XVF, XMT, Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti, Yevrostat, Jahon banki) 2004- y. <https://www.imfbookstore.org>, <http://www.cisstat.org>;
2. O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi huzuridagi Qurilishda texnik me'yorlash va standartlashtirish ilmiy-tadqiqot institutining sayti (<https://catalog.tmsiti.uz>).
3. "O'zbekiston. Ishlab chiqaruvchilar narxleri indeksi bo'yicha missiya hisoboti" (2023- yil 13–17 fevral)" L. Krasaulidze, 2023- yil;
4. "Asosiy vositalarga investitsiyalar va qurilish ishlari narxleri indekslarini hisoblash bo'yicha uslubiy tavsiyalar" Kadrlar malakasini osirish va statistik tadqiqotlar instituti, 2024- yil 12- fevral;
5. "Qurilish ishlari umumiy hajmini shakllantirish bo'yicha uslubiy nizom" O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining 2022- yil 30- iyundagi 22- sonli qarori.
6. "Методика построения индексов тсен в строительстве" утверждена приказом Агентства по статистике Министерства национальной экономики Республики Казахстан № 315 от 14 декабря 2016 г.
7. "Методика по расчету общего объема инвестиций в основной капитал и индекса физического объема инвестиций в основной капитал", Национальный статистический комитет Республики Беларусь, 29.11.2017 г.;
8. "Методологические рекомендации по формированию виброчной совместимости строительных организаций для наблюдения за ценами на приобретенные строительные материалы, детали и конструкции", служба государственной статистики Российской Федерации 22 июня 2006 г.

Asosiy kapitalga investitsiyalar va qurilish ishlari
narxlari indeksini hisoblash bo'yicha
uslubiy nizom"ga
1-ilova

**Narxlar indeksini hisoblash uchun asosiy vositalarga investitsiyalar
va qurilish ishlari elementlarining takibi**

	Ulushi
Jami kapital qo'yilmalar	1.00
shu jumladan:	
I. Qurilish-montaj ishlari	
ulardan:	
<i>I.I. Moddiy xarajatlar</i>	
I.1.1. Elektr energiyasi	
I.1.2. Qayta ishlangan neft mahsulotlari	
I.1.3. Qora metallar	
I.1.4. Bo'yoq va lak mahsulotlari	
I.1.5. Kabel mahsulotlari	
I.1.6. O'rmon va daraxtni qayta ishlash mahsulotlari	
I.1.7. Sement	
I.1.8. Asbestosement mahsulotlari	
I.1.9. Yumshoq qoplamalar va gidroizolyatsion materiallar	
I.1.10. Yig'ma temir-beton va beton konstruksiyalar	
I.1.11. Devor uchun materiallar	
I.1.12. Qurilish uchun keramika	
I.1.13. Qurilish materiallari va polimer xom-ashyo mahsulotlari	
I.1.14. Metall konstruksiyalar	
I.1.15. Shisha va chinni-fayans ishlab chiqarish mahsulotlari	
I.1.16. Elektr ishlab chiqarish mahsulotlari	
I.1.17. Sanitar-texnik va gaz qurilmalari	
I.1.18. Boshqa qurilish materiallari	
<i>I.2 Ish haqi</i>	
<i>I.3 Ijtimoiy sug'urta badallari</i>	
<i>I.4 Boshqa qurilish-montaj ishlari</i>	
<i>I.5 Rejalashtirilgan jamg'arma</i>	
II. Uskunalar	
shu jumladan:	
II.1. Energetika texnik muhandislik	
II.2. Metallurgiya sanoati uchun texnologik uskunalar	
II.3. Konchilik va qazib olish uskunolari	
II.4. Yuk ko'tarish va tashish uskunolari	
II.5. Temir yo'l muhandisligi uchun mashina va uskunalar	

	Ulushi
II.6. Elektr texnik jihozlari	
II.7. Kimyoviy va neft uchun mo'ljallangan uskunalar	
II.8. Metallni kesish va yog'ochga ishlov berish dastgohlari	
II.9. Temir presslash uskunalari	
II.10. Quyish uskunalari	
II.11. Sanoat maqsadidagi qurilmalar	
II.12. Avtomobil va traktor elektr jihozlari va qurilmalari, avtomobilsozlik uchun boshqa uskunalar	
II.13. Traktorlar va boshqa qishloq xo'jaligi texnikalari	
II.14. Qurilish va yo'l uskunalari	
II.15. Kommunal xizmatlar va maishiy xizmat ko'rsatish uchun uskunalar	
II.16. Yengil sanoat uchun texnologik uskunalar	
II.17. Oziq-ovqat va ozuqa sanoati uchun texnologik uskunalar	
II.18. Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari uchun texnologik uskunalar	
II.19. Poligrafiya sanoatining texnologik uskunalari	
II.20. Sanitariya texnik va gazga oid uskunalar	
II.21. Radioelektronika uskunalari	
II.22. Mexanika, payvandlash va shisha sanoati uskunalari	
II.23. Boshqa turdagi mashinalar va uskunalar	
III. Boshqa kapital ishlar va xarajatlar	

“Asosiy kapitalga investitsiyalar va qurilish ishlari
narxlari indekslarini hisoblash bo‘yicha
uslubiy nizom”ga
2-ilova

Asosiy qurilish materiallari, qismlari va konstruksiyalari ro‘yxati

Kod	Nomenklatura	O‘lchov birligi
	Asosiy nomenklatura materiallari	
1	Uy-joy qurilishi uchun tashqi devor panellari	m ³
2	Yuk ko‘taruvchi ichki devor panellari	m ³
3	Qavatli va tekislikdagi qoplamalar va shift plitalari	m ³
4	Ko‘plab bo‘shliqlarga ega qoplamalar va shift plitalari	m ³
5	Og‘ir betonli podval devor bloklari	m ³
6	Tayyor beton	m ³
7	Tayyor qorishma	m ³
8	Keramika g‘ishtlari	Ming dona shartli g‘isht
9	Silikat g‘isht	Ming dona shartli g‘isht
10	Gips beton panellari	m ²
11	Ezilgan tosh (sheben)	m ³
12	Qum	m ³
13	Kengaytirilgan loy (keramzit) shag‘al	m ³
14	“Metall konstruksiyalari detallari” chizmalariga binoan temir konstruksiyalar	m ²
15	Har xil navli temir-po‘latlar	t
16	A III sinfdagi davriy profil armaturalar	t
17	Kesilgan yog‘och	m ³
18	Yog‘och zarrachalaridan tarab yasalgan plitalar	m ³
19	Mineral-jun plitalar	m ³
20	Yaltiroq qoplamali keramik plitkalar	m ²
21	Oddiy profilning asbest-sement plitalari	m ²

Kod	Nomenklatura	O'lchov birligi
22	Tom yopish kartoni	m ²
23	Linoleum	m ²
24	Deraza oynasi	m ²
25	Sement	t
26	Asfalt-beton aralashmasi	t
27	Bitumlar	t
28	Mastikalar	t
29	Alif moy	t
30	Bo'yoqlar	t
31	Quyma temir quvurlar	t
32	Suv va gaz ta'minoti uchun po'lat quvurlar	t
33	Asbest-sement quvurlari	m
34	Fayansli umivalniklar	to'plam
35	Po'lat vannalar	to'plam
36	Yoritgichlar	dona
37	Elektr o'rnatish mahsulotlari	dona
38	Kabellar	km
39	Simlar – jami	km
40	Benzin	t
41	Dizel yoqilg'isi	t
42	Elektr energiyasi	ming kVt soat
43	Poliizol	m ²
44	Polietilen va polipropilen quvurlar	m
45	Eshik bloklari	m ²

“Asosiy kapitalga investitsiyalar va qurilish ishlari
narxlari indekslarini hisoblash bo‘yicha
uslubiy nizom”ga
3-ilova

**Loyihalash va tadqiqot ishlari bo‘yicha narx indekslarini hisoblashda
foydalaniladigan ishlab chiqaruvchilar narxlari indeksi ko‘rsatkichlari**

T/r	Xarajat va foyda elementlari	Narx ko‘rsatkichlari nomi
1	2	3
1	Xomashyo va materiallar	Qog‘oz va karton mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar narxlari indeksi
2	Qurilish tashkilotlari tomonidan bajariladigan ishlab chiqarish xarakteridagi ishlar va xizmatlar	Qurilish-montaj ishlari indeksi
3	Yoqilg‘i	Issiqlik energiyasi ishlab chiqaruvchilari narxlari indeksi
4	Energiya	Elektr energiyasi ishlab chiqaruvchilari narxlari indeksi
5	Ish haqi va ijtimoiy to‘lovlar	O‘rtacha oylik ish haqi indeksi 4 mehnat shakli “Mehnat hisoboti”
6	Boshqa xarajatlar	Xomashyo va materiallar, ish haqi xarajatlari narxlari indekslaridan o‘rtacha qiymat
7	Foyda	Xomashyo va materiallar, ish haqi indekslaridan o‘rtacha qiymat

“Asosiy kapitalga investitsiyalar va qurilish ishlari
narxlar indekslarini hisoblash bo'yicha
uslubiy nizom”ga
4-ilova

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar va qurilish ishlari narxlar indeksini hisoblash va e'lon qilish mexanizmi

Bosqichlar	Chora-tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Bajarish muddati	Mas'ullar
I bosqich	Qurilish korxonalari katalogi va vaznlar tuzilmasini shakllantirish.	1. Qurilishning texnologik tuzilmalari bo'yicha vazn ulushlari hamda korxonalar katalogini shakllantirish; 2. Qurilish va loyihalash korxonalarining xarajatlari bo'yicha vazn ulushlari tuzilmasini shakllantirish.	yilda bir marotaba, dekabr oyining 5- kuni	Agentlikning Nomoliyaviy aktivlarga investitsiyalar kiritish bo'yicha tizimli statistik kuzatuvlar bo'limi, Tadbirkorlik statistikasi bo'yicha yig'ma axborotlarni shakllantirish bo'limi, Ishlab chiqaruvchilar narxlar statistikasi bo'limi
II bosqich	Elektron kuzatuvlarni qabul qilish.	Har oyda E-stat tizimi orqali 12 narx (2- bobi, qurilish) kuzatuv shakli asosida yirik korxonalardan va har chorakda 4 narx (3- bobi, qurilish) kuzatuv shakli asosida kichik tadbirkorlik subyektlaridan kuzatuv ma'lumotlarini qabul qilib olinishini ta'minlash.	12- narx, kuzatuv oyining 20- sanasi, 4- narx, kuzatuv choragi oxirgi oyining 20- sanasi	Hududiy statistika boshqarmalarining Narx statistikasi bo'limi, Investitsiya va qurilish statistikasi bo'limi
III bosqich	Ma'lumotlarni umumlashtirish.	- Hududlardan elektron kuzatuv ma'lumotlarini olish; - ish haqi ma'lumotlarini, sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar narxlar ma'lumotlarini umumlashtirish.	kuzatuv oyi 23- kuni kuzatuv oyi 30- kuni	Hududiy statistika boshqarmalarining Narx statistikasi bo'limi, Agentlikning Bandlik va mehnatga haq to'lash ko'rsatkichlarini shakllantirish bo'limi
IV bosqich	Ma'lumotlarni tahlil qilish.	Umumlashtirilgan ma'lumotlarni o'tgan kuzatuv davri ma'lumotlari bilan mantiqiy nazoratdan o'tkazish, zarur hollarda korxonalar bilan ma'lumotlarga aniqlik kiritish.	kuzatuv davridan keyingi oyning 4- sanasi	Agentlikning Ishlab chiqaruvchilar narxlar statistikasi bo'limi boshlig'i, bosh mutaxassisi
V bosqich	Yakuniy ma'lumotlarni shakllantirish va e'lon qilish.	1. Yakuniy jadvallarni shakllantirish; 2. Yakuniy jadvallarni Investitsiyalar va qurilish statistikasi boshqarmasiga taqdim etish. 3. Yakuniy ma'lumotlarni Agentlik rasmiy veb-saytida, SIAT axborot tizimida e'lon qilish orqali foydalanuvchilarga yetkazish.	kuzatuv davridan keyingi oyning 5- sanasi har oyning 15- sanasi	Agentlikning Ishlab chiqaruvchilar narxlar statistikasi bo'limi, Narxlar statistikasi bo'yicha yig'ma tahliliy axborotlarni tayyorlash bo'limi

“Asosiy kapitalga investitsiyalar va qurilish ishlari
narxlarini indekslarini hisoblash bo‘yicha
uslubiy nizom”ga
5-ilova

Qurilish ishlari narxlarini indeksi bo‘yicha statistika ma’lumotlarini shakllantirish sxemasi

